

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘l yozma huquqida
UDK: 658.562 (575.1)

JALOLOV ABBOSXON RAVSHANXON O‘G‘LI

**ELEKTROTEXNIKA SANOATI MAHSULOTLARINING
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n., professor I.S.Xotamov

TOSHKENT-2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. RAQOBATBARDOSH SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	14
1.1. Sanoat korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning nazariy asoslari.....	14
1.2. Sanoat korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning holatini baholash uslubiyoti.....	29
1.3. Sanoat korxonalarida raqobatning rivojlanish tendensiyalari.....	45
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	59
II BOB. SANOATDA RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQUARISH HOLATINING TAHLILI.....	61
2.1. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....	61
2.2. Sanoat korxonalarini ekologik "toza" takomillashtirish jarayonlarining tahlili.....	71
2.3. "Yashil" sanoat rivojlanishining samaradorlik ko'rsatkichlari.....	80
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	90
III BOB. RAQOBATBARDOSH KABEL VA SIM MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ("UZKABEL" AJ QK MISOLIDA)...	92
3.1. Ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori kabel va sim mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish mexanizmini takomillashtirish.....	92
3.2. Texnologik yangilanish asosida korxonaning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.....	100
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	118
XULOSA.....	120
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	123

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Elektrotexnika sanoati bugungi kunda global iqtisodiy o'zgarishlar va raqobat muhitida o'z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Sanoat tarmoqlari va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishda elektrotexnika mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish zaruriyati yuqori. Raqobatbardoshlik bugungi kunda har qachongidan ham ko'proq barcha jamiyatlar va hukumatlarning tashvishlari markaziga aylandi va shuning uchun u ham tadqiqotchilar, ham amaliyotchilar doiralarida markaziy mavzudir. Raqobatbardoshlik hozirda sanoat va xizmat ko'rsatish kompaniyalari uchun asosiy muammo bo'lib qolmoqda va "har bir korxona uchun raqobatga duch kelishi va bozor talablariga javob beradigan zarurat" bo'lib qolmoqda. Transformatsion jarayonlar va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni takomillashtirish sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Korxonaning raqobatbardoshligi bilan bog'liq bo'lgan mikroiqtisodiy darajada raqobatbardoshlik bozorda kuchli o'rinni egallaydi. Shuning uchun raqobatbardoshlikni baholashda uning bozor ulushlari evolyutsiyasini o'rganish kerak. Makroiqtisodiy darajada mamlakatning raqobatbardoshligi uning aholisining turmush darajasini oshirishga imkon beradigan ichki va tashqi talabni qondirish qobiliyatidir. Bu yerda ham milliy iqtisodiyotning boshqa mamlakatlarga nisbatan bozor ulushlari qisqa muddatda raqobatbardoshlikning yaxshi ko'rsatkichi bo'lishi mumkin.

Oxirgi yillarda O'zbekiston sanoatida asosiy vosita, texnologiya, infratuzilmalarning eskirishi va boshqa bir qator tizimli muammolar tarmoq korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga to'siq bo'lib kelmoqda. Sanoat korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning zamonaviy mexanizmlaridan foydalanish zaruriyati ortib borishi bilan birga, mexanizmning tatbiq etilishini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Jahon kabel-sim bozorining global hajmi 2022-yilda 24,8 milliard AQSh dollarini tashkil etgan.

2023-yildan 2028-yilgacha jahon kabel-sim bozorining global hajmi (CAGR) 7,72 foizga o'sishi kutilmoqda¹. O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida elektrotexnika tarmog'ining sifat jihatidan jadal rivojlantirish yuzasidan ham keng qamrovli va maqsadli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

“2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish”²;

mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko'paytirish hamda 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratish;

elektrotexnika sanoatida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga va eksportini 3 baravarga oshirish ustuvor maqsadlar sifatida belgilangan.

Shuningdek, “O'zbekiston-2030” strategiyasida “...sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish; sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish; elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga oshirish va barcha maishiy texnika ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga 1,5 milliard dollar investitsiya jalb qilish; yangi turdagi mahsulotlar o'zlashtirish va mahalliyashtirish darajasini o'rtacha 65 foizga yetkazish”³ ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimizda elektrotexnika korxonalarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ <https://www.imarcgroup.com/cable-management-market>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони // www.lex.uz.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O'zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–300-sonli qarori // www.lex.uz.

to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida” farmonlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-maydagi PQ-4348-son “Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tarmoqning investitsiyaviy hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2021-yil 2-martdagi PQ-5011-son “Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2021-yil 24-iyundagi PQ-5159-son “Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2022-yil 24-yanvardagi PQ-99-son “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son ““O'zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-oktyabrdagi 877-son ““O'zeltexsanoat” uyushmasining elektrotexnika sanoatini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2019-yil 30-oktyabrdagi 899-son “2019–2022-yillarda elektrotexnika sanoatini jadal rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida”, 2023-yil 10-maydagi 194-son “Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish jarayonini joriy etgan elektrotexnika sanoati korxonalarining ro'yxatini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar⁴da belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tadqiqotning natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sanoatda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirishga oid muammolarni yoritishda bir

⁴ O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

qator taniqli xorijiy olimlar o'z ilmiy ishlari bilan katta hissa qo'shgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlari global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish va samarali ishlab chiqarish usullarini yaratishga qaratilgan bo'lib, ularning yondashuvlari va tahlillari har bir sanoat sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Va bu Michael E. Porter⁵, Arturo Bris⁶, Christos Cabolis⁷, Yong He, Cui Tang, Danlei Zhang, Nuo Liao⁸, Samuel J.G. Cooper⁹, Phi-Hung Nguyen¹⁰ Wonsub Eum¹¹larning ilmiy izlanishlarida yoritib berilgan.

Michael E. Porter sanoat tahlillari va strategik menejment bo'yicha dunyo miqyosida tanilgan olimlardan biridir. U ishlab chiqqan "Porter's Five Forces" modelidan kompaniyalarning raqobat kuchlarini baholashda foydalaniladi va bu model orqali kompaniyalar raqobat kuchlarining qanday ishlashini tushunib, o'z mahsulotlarini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishlari mumkin. Porterning innovatsiya va mahsulotning o'ziga xosligi bo'yicha ishlari sanoat raqobatbardoshligini oshirishda muhimdir.

Arturo Bris iqtisodiyot va moliya bo'yicha xalqaro darajadagi olim bo'lib, uning asarlari global raqobatbardoshlik va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bris global iqtisodiyotdagi kompaniyalar va

⁵ Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / Майкл Портер; Пер. с англ. — 4-е изд. — М.: Алпина Паблишер, 2011. — 453 с.

⁶ Arturo Bris The Right Place: How National Competitiveness Makes or Breaks Companies 5 August 2021, Pages 1-478 (<https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85116972528&origin=inward&txGid=1ef28ff95e2f654880affbec76f5797e>)

⁷ Brisley Neil, Arturo Bris, and Christos Cabolis (2011), "A theory of optimal expropriation, mergers and industry competition", JOURNAL OF BANKING & FINANCE 35-4, pp. 955-965. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0378426610003432>)

⁸ Yong He, Cui Tang, Danlei Zhang, Nuo Liao "Assessing the effects of the influencing factors on industrial green competitiveness fusing fuzzy C-means, rough set and fuzzy artificial neural network methods" Publication: Ecological Indicators Publisher: Elsevier Date: March 2023.

⁹ Samuel J.G. Cooper, Stephen R. Allen, Ahmed Gailani, Jonathan B. Norman, Anne Owen, John Barrett, Peter Taylor "Meeting the costs of decarbonising industry – The potential effects on prices and competitiveness (a case study of the UK)" Available online 27 November 2023 0301-4215/© 2023 The Authors. Published by Elsevier Ltd.

¹⁰ Phi-Hung Nguyena, Thi-Ly Nguyenb, Chia-Nan Wangc, Minh-Duc Vua, Lan-Anh Thi Nguyena, Hong-Anh Phama, Mai-Anh Thi Phama, Hong-Quan Lea "Linking investment decisions-based on firm performance and open innovation practices in Vietnam's wire and cable market using data envelopment analysis models" Available online 28 June 2023 2199-8531/© 2023 The Author(s). Published by Elsevier Ltd on behalf of Prof JinHyo Joseph Yun. <https://doi.org/10.1016/j.joitmc.2023.100080>

¹¹ Wonsub Eum, Jeong-Dong Lee The co-evolution of production and technological capabilities during industrial development Publication: Structural Change and Economic Dynamics Publisher: Elsevier Date: December 2022 / <https://doi.org/10.1016/j.strueco.2022.07.001>